**44-mavzu: [g] tovushi. Gg harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar**

**Dars maqsadi**:

- [g] tovushining talaffuzi va Gg harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [g] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** [g] tovushi ishtirokidagi so`zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** rasmli va bo`g`inli kartochkalar, kesma harflar

## Darsning borishi:

## I.Kirish qismi (5 daqiqa)

### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Nechta gap bor mashqi: O'qituvchi doskaga 3 ta gapdan iborat matnni yozib qo`yadi. O`quvchilardan nechta gap yozilganini so`raydi. Ali maktabda o`qiydi. Mana u kitob o`qiyapti. U odobli bola.

*-Bugun siz bilan "Nechta gap bor" mashqini o'tkazamiz. Doskada yozilgan matnda nechta gap bor.raqamli kartochkalaringiz yordamida ko`rsating.*

## Asosiy qism (40 daqiqa)

**1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)**

***Darslikda berilgan rasm asosida so`z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.***

Rasmdagi bog`liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so`zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

gilam- 2 bo`g`in , 1- bo`g`in -gi, 2-bog`in -lam chizmada 

Qolgan so'zlar guruhlarga bo'lingan holda bajarish tavsiya etiladi. Unda o'quvchilar berilgan so'zning chizmasini chizadilar. Har bir guruhda vakil chiqib doskada chizmani chizadi qolgan o'quvchilar tekshirib oladilar:

1-guruh: gitara

2-guruh: gumbaz

3-guruh: gulzor

4-guruh: guldon

5-guruh: gul

O`xshash bo`g`inli so`zlarni o`qilishi va so`zlar ma'nolari tushuntiriladi. Gul gul-don gul-zor

**Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)**

**Harflar tasmasidan o'tilgan harflar esga olinadi.**

Darslik


[g] tovushi. G g harfi 44-dars

Rasmga qarang. G harfi qatnashgan so'zlarni topib, ularga mos chizma chizing.

tug, teg – ma

kul, tun – gi – lam, los

gul – don, zor

Gul, Gilam, Gilos → Qanday? → Mayinmi yoki qattiq? Gullimi yoki gulsiz? Qizilmi yoki ko'k?

Tez aytish. Guldasta – gullardan dasta.

Gulzorda

Ma-di-na gul-lar-ni yoq-ti-ra-di. U o-na-si va a-ka-si bi-lan bir-ga-lik-da gul-zor-ga a-tir-gul va lo-la ek-di. Ma-di-na gul-lar-ga o'z vaq-ti-da suv quy-di. Tez kun-da gul-lar oq, qi-zil, sa-riq bo'-lib gul-la-di. Ma-di-na gul-lar-ni ko'-rib qu-von-di. U o'z gul-la-ri-dan o-na-si-ga gul-das-ta ya-sa-di.

*1.Ko’rsatkichlar yordamida so`zlarni ketma-ket o`qing.*
So`zlarni ko`rsatkich bo`ylab o`qitiladi. So`zlar ma’nosi tushuntiriladi.

*2. Ko’rsatkichlar yordamida so’roq gaplarni hosil qiling va o’qing. Salollarga javob bering.*

*3. Tez aytishni tez-tez o`qing va ayting.*
Guldasta – gullardan dasta.

*4.Gulzorda matnini o`qing.*
Ma-di-na gul-lar-ni yoq-ti-ra-di. U o-na-si va a-ka-si bi-lan bir-ga-lik-da gul-zor-ga a-tirgul va lo-la ek-di. Ma-di-na gul-lar-ga o‘z vaq-ti-da suv quy-di. Tez kun-da gular oq, qi-zil, sa-riq bo‘-lib gul-ladi. Ma-di-na gul-lar-ni ko‘-rib qu-von-di.
U o‘z gul-la-ri-dan o-na-siga gul-das-ta ya-sa-di.

Matn yuzasidan suhbat o’tkaziladi.

**Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)**

*1. G harfini o‘rnini topib bo‘yang.*
*2.Harflarni raqamlar ketma-ketligida yozsangiz so`z hosil bo`ladi.*

| 2 | 5 | 3 | 4 | 1 |
|---|---|---|---|---|
| O‘ | K | D | A | G |
| | | | | |

| 2 | 1 | 6 | 5 | 4 | 3 |
|---|---|---|---|---|---|
| A | G | A | T | E | Z |
| | | | | | |

| 1 | 4 | 3 | 2 | 5 |
|---|---|---|---|---|
| O‘ | A | D | R | K |
| | | | | |

1. *Rasmlarni bo‘yang. Ularning nomlarini jadvaldan toping.*

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| s | u | g | i | l | o | s | e |
| g | u | l | d | o | n | p | s |
| k | a | t | u | g | m | a | b |
| g | u | l | d | a | s | t | a |
| a | l | a | g | a | n | y | r |
| r | e | n | u | t | a | s | n |



**Darsga yakun yasash:**
Refleksiya mashqi:
**Bugun darsda sizning esingizda qolgan bitta ma’lumotni ayting.**

CHOP ETISH UCHUN EMAS